



2-sinf. O'qish

Mavzu: Qorboboning qasriga mehmonga.

O'quv materiali: „Qor.“ Zafar Diyor

Maqsad: 1. Zafar Diyorning „Qor“ she'rini o'qish orqali o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirish. Tabiat hodisalari haqida ma'lumot berish.

2. Tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash. Hamjihatlikda ishlashda do'stlik , o'zaro hurmat hislarini tarbiyalash.

3. Erkin fikrlash ko'nikmalarini, og'zaki nutqlarini, tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.


Dars turi: Noan'anaviy (sayohat)

Dars metodi: Suhbat, izlanish, muammoli juftlikda ishlash, kollaj.

Dars jihozi: Multimedia, didaktik va tarqatma materiallar, boshqotirmalar, tez aytish va topishmoqlar, magnitofon.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism. (3 minut)



a) O'quvchilarga boshqotirma beriladi. Boshqotirmadan „Vaqt – uchqur qush“ maqoli topiladi. Bolalarga darsda vaqtdan unumli foydalanish lozimligi aytiladi.

b) O'quvchilarga „Qorbobo“ applekatsiyasi ko'rsatiladi. Dars jarayonida faol qatnashgan har bir o'quvchining javobiga qarab applekatsiyadagi kompozitsiya qismlari berib borilishi aytiladi. Dars so'ngida applekatsiyani to'liq yig'ib bo'lgan o'quvchi besh ball, qisman yig'gan o'quvchi to'rt ball, faqat archa va qor yig'gan o'quvchi uch ball, archalarni yig'gan o'quvchi ikki ball, faqat qor yig'gan o'quvchi bir ball bilan baholanishi tushuntiriladi.

II. Dars maqsadi bilan tanishtirish. Uy vazifasini so'rash. O'tilganlarni takrorlash. (12 minut)

- Bolajonlar, bugun sizlar bilan birgalikda Qorbobo qasriga mehmonga boramiz. Sayohatga chiqishimiz uchun bizlarga nima kerak bo'ladi?

- Issiq kiyim, chana, bug'ular.

- Ha, barakalla, bizlarga qor va bo'ronlarda ham bemalol yura oladigan uchqur bug'ular va sehrli chana kerak. Qorbobo bizga o'zining sehrli chanasini va bug'ularini yuboribdi. Lekin chanalar yurishi uchun biz tezkor savol-javob o'tkazishimiz kerak. Tayyormisiz?

- Ha.



- Unda boshladik. „Qorqiz“ she’rining muallifi kim?

- A. Obidjon.

- „Uch o’g’il“ ertagi nima haqida?

- Tadbirkorlik haqida.

- Bug’ular qayerlarda yashaydi?

- Shimolda.

- Bizning vatanimizda ham bug’ular yashaydimi?

- Ha. Respublikamizning tog’li viloyatlarida Buxoro bug’usi yashaydi.

- Buxoro bug’ulari haqida kim qanday ma’lumot biladi?

- Buxoro bug’ulari kamayib ketayotganligi uchun O’zbekiston „Qizil kitobi“ ga kiritilgan.


- Barakalla. Savol-javobda yaxshi qatnashib, chanalarni quvvatlantirib oldik. Yana bir muammo. Bug’ular tez harakatlanishi uchun ularni ham quvvatlantirishimiz kerak. Buning uchun tez aytishlarni tez-tez aytishimiz kerak.

(Tez aytishlar namoyish etiladi, o’quvchilar tez aytishlar aytadilar)

- Qani, endi uchqur bug’ular bizlarni Qorbobo qasriga boshlang.

(Qorbobo qasri tasvirlangan slayd. Barg uchayotgan manzara.)

- Bolajonlar, yo’limizdagi bargni taniyapsizmi?



- Ha, bu Latif Mahmudovning „Ayrilganni ...“ hikoyasidagi o’jar barg-ku.

- Keling. O’jar barg nima uchun shunday ahvolga tushib qolganini eslab olamiz.

(„Ayrilganni ...“ hikoyasi mazmunini uch-to’rt o’quvchiga hikoya qildiriladi. Hikoya asosida savol-javob o’tkaziladi.)

- Bolajonlar, qarang, yo’limizda qordan yasalgan filcha. U bizga nimadir demoqchi. Uning nima demoqchi ekanligi bilishni xohlasangiz, geometrik shakllardagi harflarni ketma-ket joylashtirib, maqolni o’qing.


- Yo’limizdagi filcha nima deyayotganligini topdingizmi?

- Birlashgan o’zar, birlashmagan to’zar.

- Juda to’g’ri. Biz inoq bo’lib birgalikda harakat qilib yo’limizdagi uchragan to’siqlarni yengib o’tsak, manzilga tezroq yetib olamiz.

(Qor odamchalar slaydi)

- Bolalar, bu odamchalar bizdan qor so’rashyapti. Ularga yordam bersak, yo’limiz ochiladi. Biz ona tilidan olgan bilimlarimizni ishga solib, bo’g’inlardan tuzilgan qor parcha bo’laklarini to’g’ri yig’sak, qor haqidagi maqolni bilib olamiz va qor odamchalarga yordam beramiz.



(Qor parchalari bo'laklari tarqatiladi. Unda „Qishning qori – kuzga baraka“ maqoli hosil bo'ladi. Qor odamchalar ustidan qor yog'ayotgan manzara slaydi.)

- Ana, bolajonlar, qor odamchalar so'ragan qorlarni ham bera oldik. Keling ularni xursand qilish uchun darsligimizdagi „Qor“ she'rini o'qiyviz. „Qor“ she'rinining muallifi kim ekan?

- Zafar Diyor

- Biz Zafar Diyorning qanday she'rlarini o'qiganmiz?

- „Kapalak“, „Tabassum“, „Qish zavqi“...

III. Yangi mavzu bayoni. (15 minut)

(O'quvchilarga „Qor“ she'ri navbati bilan o'qitiladi. She'r asosida savol-javob o'tkaziladi.)

- Bolajonlar, she'r sizlarga yoqdimi?

- Ha.

- Siz qish faslida qanday o'yinlar o'ynaysiz?

- Qorbo'ron o'ynaymiz, qorbobo yasaymiz, chanalarda uchamiz.

(Bolalar chana uchayotgan slayd.)

- Bolalar, chana uchayotgan tengdoshlaringizni ko'rib sizlarni ham o'ynagingiz keldimi? Keling, biz ham „Qor“ qo'shig'iga raqsga tushib qor odamchalarni xursand qilamiz.



Dam olish daqiqasi.

(„Qor“ qo‘shig‘i qo‘yiladi. Bolalar qo‘shiqqa mos harakatlarni o‘ynaydilar.)

- Bolajonlar, maza qilib o‘ynab oldingiz. Endi, she‘rdan bolalar o‘yinlari haqidagi qismni topib o‘qib bering.

- ...

- Barakalla, qishki sport turlaridan qaysilarini bilasiz?

- Figurali uchish, xokkey, tog‘ chang‘isi sport turlari.

(Qishki sport turlari slaydda namoyish etiladi.)

- Barakalla, sport bilan shug‘ullanish salomatligimizni yaxshilaydi. Yurtboshimiz tomonidan sportni, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga juda katta ahamiyat berilyapti. Yunusobod tumani 19-mavzesida bolalar shug‘ullanishi uchun sun‘iy muz saroyi qurilgan.

IV. Mustahkamlash. (10 minut)

- Bolalar yo‘limizdan chiqib qolgan qor odamcha boshqotirma yechishimizni so‘rayapti.

(„Qorbobo“ krossvordini o‘quvchilarga tarqatiladi.)

- Bolajonlar, boshqotirmadagi kalit so‘zda qanday so‘z yashiringan ekan?

- Qorbobo.



- Qorbobo manzilga oz qolganligi haqida ishora beryaptilar.

- Bolalar, qarang, yo'limizda qor yog'yapti. Misolli qor parchalari yog'yapti-ku! Bu qor parchalar bizga nimani eslatishyapti ekan-a? Bular qanday ifodalar?

- Sonli ifodalar.

- Keling, ifodalarning qiymatlarini hisoblab, qor parchalari nimani ishora qilayotganliklarini bilib olamiz.

- 50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.


- 55-modda. Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralalar umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

- Barakalla. Muhtaram prezidentimiz siz bolajonlarni Konstitutsiyamiz moddalari mazmunini teran anglab yetishingizni istaydilar.

(Prezident I.Karimovni fikrlari namoyish qilinadi va o'qib beriladi.)

- Yo'limizda davom etamiz. Qasrga yaqin yo'lni topishimiz uchun quyidagi topishmoqlarni topishimiz kerakka o'xshaydi.

(Topishmoqlar slaydda namoyish etiladi.)



- Ana, bolajonlar, qasrga ham oz qoldi. Anavi, g'aroyib archani qaranglar. Unda qandaydir so'zlar yozilgan. Keling, birga o'qib ko'raylik.

(„Archa“ boshqotirmasi namoyish etiladi. Bolalar navbati bilan so'zlarni o'qiydilar.)

- Mana, nihoyat, Qorboboning qasriga ham yetib keldik. Ana, Qorbobo bizlarni qarshi olyaptilar.

(Qorbobo qasri, Qorbobo va bug'ular slaydi.)

- Qorboboning qasri sizlarga yoqdimi?

- Ha.

- Mana, bolajonlar, Qorbobo bizlarga ajoyib archani sovg'a qildilar. Keling, archamiz chiroqlarida porlayotgan so'zlarni o'qib ko'ramiz. Unda nimalar yozilibdi?

- Obod turmush yili.


- Juda to'g'ri o'qidingiz. Kelayotgan yilimiz „Obod turmush yili“ deb nomlanibdi. Biz bu yilda qanday ishlarni bajarib, o'z hissamizni qo'shamiz?

- Sinfimizni, maktabimizni, hovlimizni, mahallamizni ozoda saqlaymiz, maktabimiz bog'iga manzarali va mevali daraxtlar gul ko'chatlari ekib yilimiz fayzli o'tishiga o'z hissamizni qo'shamiz.

- Xayrlashayotgan yilimiz qanday nomlangan edi?

- Mustahkam oila yili

- Juda to'g'ri. Prezidentimiz har bir yilni o'zgacha nom bilan atab yilni mazmunli va fayzli



o'tishiga harakat qilib kelmoqdalar. Biz ham a'lo o'qishimiz, odobli xulqimiz bilan vatanimizda amalga oshirilayotgan ishlarga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

V. Darsga yakun yasash, o'quvchilarni baholash. (3 minut)

- Bolajonlar, bugungi darsimiz sizlarga yoqdimi? Endi oldingizda hosil bo'lgan manzaraga qarab, o'z faoliyatingizni baholab ko'ring-chi!

(O'quvchilar faoliyati tahlil qilinib, ballari e'lon qilinadi.)

VI. Uyga vazifa berish. (2 minut)

- Uyda „Qor“ she'rini yodlab quyidagi boshqotirmani hal qilib kelasizlar. Bugungi dars taassurotlarini rasm daftaringizga chizasizlar.

Slaydlar ilova qilinadi.

Yunusobod tumani

**96-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulsara
Saydaliyevaning 2-sinf o'qish fanidan
1 soatlik dars ishlanmasi**

